

O'ktam Panjievich JIYANOV

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
kafedrası o'qituvchisi
e-mail: u.jiyanov87@gmail.com*

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO STANDARTLAR VA XORIJIY TAJIRIBALARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ И ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА В РАЗВИТИИ ЗИЯРАТ ТУРИЗМА

THE IMPORTANCE OF INTRODUCING INTERNATIONAL STANDARDS AND FOREIGN EXPERIENCES IN THE DEVELOPMENT OF ZIYARAH TOURISM

Annotatsiya. Bugun ziyorat turizmi borgan sari kengayib, imkoniyatlari va bozori o'sib, turizm industriyasiga katta o'zgarishlar olib kirmoqda. Maqolada aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari, unga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Shuningdek, bugungi kunda musulmon sayyohlarga qulay sayyohlik xizmat turlarini taklif etish maqsadida "Halol" standartlarini amaliyotga jalb qilishning ahamiyati, imkoniyatlari va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Ziyorat turizmi, turizm va mehmonxona industriyasi, YuNESKO, "Halol" standarti, Halal Development Corporation, «Vatandosh», «Academic visa», «Medical visa», «Student visa», «Pilgrim visa».

Аннотация. Сегодня паломнический туризм расширяется, его возможности и рынки растут, а индустрия туризма претерпевает серьезные изменения. В статье анализируются возможности и факторы, влияющие на

развитие паломнического туризма в нашей стране, с учетом этих аспектов. Также обсуждались важность, возможности и меры, принимаемые для внедрения стандартов «Халяль» с целью предоставления мусульманам разнообразных туристических услуг, удобных для туристов.

Ключевые слова. Зиярат туризм, туризм и гостиничный бизнес, ЮНЕСКО, стандарт Халяль, Halal Development Corporation, «Vatandosh», «Academic visa», «Medical visa», «Student visa», «Pilgrim visa».

Annotation. Today, pilgrimage tourism is expanding, its opportunities and markets are growing, and the tourism industry is undergoing major changes. The article analyzes the opportunities and factors influencing the development of pilgrimage tourism in our country, taking into account these aspects. Also, the importance, opportunities and measures taken to implement the «Halal» standards in order to offer Muslims a variety of tourist services that are convenient for tourists were discussed.

Keywords. Ziyarah tourism, tourism and hotel industry, UNESCO, Halal standard, Halal Development Corporation, "Vatandosh", "Academic visa", "Medical visa", "Student visa", "Pilgrim visa".

Ma'lumki, O'zbekiston tarixiy qadamjolari ko'pligi bo'yicha dunyodagi yetakchi o'nta mamlakatlardan biri hisoblanadi. Xususan, mamlakatimizda 7400 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarining 200 dan ortig'i YuNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan [1]. Mana shu omillarning o'zi ham yurtimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng imkoniyatlar mavjud ekanligini asoslaydi.

O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Mansur Al-Moturidiy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud Zamaxshariy kabi musulmon olamining mashhur olimlari dunyo tamadduniga o'zining ulkan hissasini qo'shgan. Ular qo'nim topgan muborak joylar, ular qurdirgan muhtasham binolar nafaqat dunyo musulmonlarining, balki boshqa din vakillarining ham qiziqishini uyg'otmoqda. Bu madaniy va ilmiy meros mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonga bo'layotgan qiziqish, sayyohlar oqimining asosiy qismi musulmon mamlakatlaridan ekanligini hisobga olsak, "Halol" belgisiga ega turizm xizmatlarini rivojlantirish mamlakatning ziyorat turizmi salohiyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Ziyorat turizmini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish va tajriba almashinish eng samarali yo'ldir. Bugun ziyorat turizmi rivojlangan mamlakatlarga Malayziya, Indoneziya, Marokash va Turkiya kabilar kiradi. Ushbu davlatlarning xalqaro tajribalarini o'rganib, yurtimiz turizmida va amaliyotida qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ham tarixiy, ham til va madaniyat jihatdan O'zbekistonga eng yaqin mamlakat Turkiya hisoblanadi va bu mintaqada boshqa davlatlarga qaraganda turizm ancha yaxshi rivojlangan. Misol uchun, erkak va ayollar uchun alohida hovuzlar, oilaviy hordiq chiqarish obyektlari, bolalar uchun o'yingohlar kabilarni o'rganib, amaliyotga joriy qilish musulmon sayyohlar qo'shimcha qulayliklar yaratadi [3].

Ma'lumki, Malayziya jahonda ziyorat turizmining katta ulushiga egalik qiladi. Bu mamlakatga dunyo musulmon sayyohlarining 17% i tashrif buyuradi [4]. Mamlakatga tashrif buyurayotgan musulmon sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida "SalamWeb" nomli maxsus internet "browser" ishlab chiqilgan. Unda musulmonlar uchun yangiliklar, namoz vaqti haqida ogohlantirish va qibla tomonni tanlash uchun kompas funksiyalari kiritilgan. Mamlakatimizda ham musulmon sayyohlar va ziyoratchilar uchun axborot beruvchi browser hamda platformalar yaratish ijobiy samara beradi.

O'zbekiston ziyorat turizmiga asosiy e'tiborini qaratar ekan, ziyorat turizmning asosini tashkil qiluvchi xalaqaro "Halol" standartlarini amaliyotga kengroq joriy etish muhim hisoblanadi. Hozirda O'zbekistonda halol turizmni rivojlantirish uchun bir necha asosiy mezonlarga e'tibor berish talab etiladi va albatta bu mezonlar jahon tajribasi hamdir. Bunday mezonlarga mamlakatimizga tashrif buyurayotgan musulmon sayyohlar uchun yartilgan xarid qilish imkoniyatlari, xavfsiz sayohat, ovqatlanish imkoniyatlari, ibodat sharoitlari, aeroport xizmatlari, turar joy, viza talablari va boshqalarni kiritish mumkin.

Xarid qilish imkoniyatlarida asosan islom dinida ta'qiq qo'yilmagan mahsulot va tovarlar savdosi ko'zda tutiladi. Mamlakatga tashrif

buyurayotgan sayyoh, albatta, borgan joyidan biror-bir esdaliklar olib kelish payida bo'ladi. Masalan, ayollar turli liboslar sotib olayotgan vaqtida uning islom shariati qoidalariga mos kelishiga e'tibor qaratadilar. Erkaklarda ham islom dini ko'rsatmalariga asosan kiyinadilar. Bu esa sotuvchilardan iste'molchilarning bu talablariga javob berishni taqozo qiladi.

Xavfsiz sayohat borasida mamlakatimizda muammolar deyarli mavjud emas. Butunjahon qonun va tartib indeksiga ko'ra, 2020 yilda O'zbekiston dunyoning eng xavfsiz to'qqiz mamlakati safidan o'rin oldi [8]. Bu natijaga milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlashga bo'lgan e'tibor bilan erishildi. Bu jihatlar mamlakatga sayyohlar oqimini kuchayishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, aholimizning aksar qismi islom diniga e'tiqod qiluvchilar hisoblanadi, bu omil mamlakat aholisining tashrif buyuruvchi musulmon mehmonlarga bo'lgan munosbatlarida yanada qo'l keladi. Chunki islom dinidagi mehmonni e'zozlash shartlariga mamlakatimiz aholisi alohida e'tibor qaratishadi.

Ovqatlanish imkoniyatlari borasida ham O'zbekiston yuqori imkoniyatlarga ega. Chunki mamlakatimiz aholisining aksar qismi islom shariatiga mos keladigan hayvonlarni iste'mol qilishi, shuningdek, ularni islom shariatlariga amal qilgan holda so'yishi yohud taomlarning islom shariatiga mos ravishda tayyorlanishi haqida xabardorlik musulmon sayyohlarda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan shubhani sezilarli darajada pasaytiradi. Faqatgina hozirda oziq-ovqat sanoatida musulmon bo'lmagan tomonlarning yondashuvi, yohud ular ishlatayotgan texnologiyalarning musulmon mamlakatlarda ham ishlatilayotganligi musulmon xalqlarning bu texnologiyalardan islom shariat ko'rsatmasiga amal qilgan holda foydalanishini talab qiladi. Shuningdek, yurtimizga kirib kelayotgan import tovarlari tarkibi ham "Halol" standartiga mos bo'lishi lozim. Kelayotgan musulmon sayyohlar hozirda amalga oshirilayotgan jahon oziq-ovqat sanoatidagi "Halol" sertifikatlashtirish tizimidan yetarlicha ogoh bo'lib kelishmoqda. Bu esa bizdan ularni "Halol" belgisiga ega oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash vazifasini yuklaydi.

“Halol” standartlari – mahsulotlarni islom dini talablari bo'yicha ishlab chiqarish, saqlash, tashish, sotish va tamg'lash jarayonlariga bo'lgan talablarni belgilaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, “Halol” standartini joriy etish bo'yicha Malayziya, Turkiya, BAA, Saudiya Arabistoni, Qatar, Indoneziya kabi mamlakatlar ilg'or hisoblanadi. Bugungi kunda “Halol” belgisi ostida ishlab chiqariladigan mahsulotlarga Yevropa Ittifoqi, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari, Yangi Zelandiya va Tailand kabi mamlakatlarda ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Butunjahon Halol Konferensiyasining (World Halal Conference (WHC)) 2018-2019-yillardagi hisobotlariga ko'ra, musulmonlar 2017-yilda oziq-ovqat, ichimliklar va boshqa turli hayotiy ehtiyojlar uchun 2,1 trillion AQSh dollari sarflashgan va bu qiymat 2023-yilga borib 3 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Toifasiga ko'ra oziq-ovqat va ichimliklar musulmonlarni 1,3 trillion AQSh dollari miqdorida xarajatlar va shuningdek, turmush tarziga ko'ra 270 milliard AQSh dollari, media va sog'lomlashtirishga 209 milliard AQSh dollari, sayohatga 177 milliard AQSh dollari, farmaseftikaga 87 milliard AQSh dollari, kosmetikaga 61 milliard AQSh dollari miqdorida xarajatlar qilishiga undamoqda. Ko'plab korxonalar ko'proq “Halol” sertifikatiga ega oziq-ovqatlar tarmog'ida faoliyat olib boradi. Mahsulot taklifi “Halol” sertifikatli ingradientlarning miqdorini oshib borishiga to'g'ri proporsional tarzda kengayib bormoqda va korxonalar o'zgarib borayotgan talablarni qondirish uchun o'zlarining portfoliolarni diversifikatsiya qilib bormoqdalar. Misol sifatida, “Halol” standartlashtirish hamkorligi dasturi uchun F&N Beverages Manufacturing Sdn Bhd va Halal Development Corporation (Halol sertifikatli rivojlanish korparatsiyasi) o'rtasida o'zaro kelishuv memorandumini imzolanganligini keltirish mumkin. Dastur yirik Malayziya kompaniyalari bilan multimilliy kompaniyalar o'rtasida hamkorlik qilish orqali halol standartli sanoatning kichik va o'rta biznes vakillarini baynalminallashtirishni ko'zlaydi [9].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosida taxminan 1,9 milliard musulmon aholi mavjud bo'lib, bu dunyo aholisining 24 foizidan oshig'ini tashkil etadi. Bundan tashqari, musulmonlar butun dunyo aholisiga qaraganda tezroq o'sishi kutilayotgan yagona yirik diniy

guruh sifatida e'tirof etiladi. Statistik hisobotlarda, 2016-yilda musulmon sayyohlar soni 140 mln. kishi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilda 230 million kishiga yetishi qayd etilgan. Agar ulardan keladigan tushum 2016-yilda 142 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilda 300 milliarddan oshadi. Yana qiziqarli jihati shundaki, musulmon sayyohlar boshqa diniy konfessiyalarga mansub sayyohlarga qaraganda eng yoshi hisoblanadi, ya'ni ularning yoshi o'rtacha 23 yoshni tashkil etadi [12]. Bunday kengayib borayotgan sig'im va yosh tarkibi “Halol” sertifikatlangan mahsulotlarning o'sib borayotgan bozorini yuzaga keltiradi.

Tahlillarga ko'ra, “Halol” sertifikatiga ega mahsulotlar bozori 2016-yilda 45,3 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga borib bu qiymat 58,3 milliard AQSh dollarigacha oshishi mumkiligi taxmin qilinmoqda. Jahonda “Halol” standarti asosida ishlab chiqarishning eng yirik sohasi islomiy moliya bozori bo'lib, u umumiy bozorning 43 foiz ulushini egallaydi, undan keyin yirik bozor ulushi 36 foizli bo'lgan “Halol” standartli oziq-ovqat bozoridir [10]. Bugun ziyorat turizmi bozorining borgan sari kengayib borayotganini hicobga olib, mamlakatimizda “Halol” standartlash va sertifikatlashtirish amaliyotini yo'lga qo'yish orqali nafaqat musulmon sayyohlarga qulaylik yaratish va mamlakatga bo'lgan qiziqishini uyg'otish mumkin, balki chet mamlakatlarga ham bunday belgiga ega mahsulotlarni eksport qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Aholisining 94% musulmonlardan iborat bo'lgan O'zbekiston “Halol” standartlarini joriy etish orqali turizmning yangi bosqichiga chiqishi mumkin. Hozirda Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT)ga a'zo davlatlar bilan aloqalarga jadal kirishilayotgan bir vaqtda, “Halol” standartlari va sertifikatlash tizimini amaliyotga keng joriy etish O'zbekiston uchun IHT davlatlari bilan yanada integratsiyaga kirishishda keng imkoniyatdir.

E'tirof etib o'tish lozim, O'zbekiston Respublikasida “Halol” standartlarini qabul qilish va amaliyotga joriy etish ishlari bilan birgalikda ushbu standartlarga muvofiq milliy sertifikatlashtirish tizimini yaratish ishlari boshlangan. Dastlabki bosqichda Respublikamizda “Halol” standartlarini qo'llanilishi ixtiyoriy ravishda amalga oshirilmoqda. “Halol” belgisi ostida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nazorati amaldagi talablarga asosan muvofiqlik sertifikatini

bergan idora tomonidan amalga oshirilishi belgilangan [13].

2019-yilda “O‘zstandart” agentligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Buxoro viloyati departamenti vakillaridan iborat mamlakatimiz delegatsiyasi Indoneziyaga tashrif buyurdi. Safar davomida Indoneziya Milliy standartlashtirish tashkiloti (BSN), Ulamolalar Kengashining Halol sertifikatlashtirish agentligi va Din ishlari vazirligi qoshidagi “Halol” mahsulotni kafolatlash agentligi vakillari hamda O‘zbekistonning Indoneziyadagi turizm elchisi maqomini olgan Gunadarma universiteti rahbariyati bilan bilan qator uchrashuvlar o‘tkazildi. “Halol” standartlarini O‘zbekistonda joriy etilishi yuzasidan qilinayotgan hamkorlik natijalari va istiqbollari kelishib olindi.

Bugungi kunda, O‘zstandart agentligi va Indoneziya standartlashtirish tashkiloti ekspertlari o‘rtasida kelishuv bitimi va hamkorlik dasturi loyihalari ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, Buxoro viloyatida Indoneziya Halol sertifikatlashtirish agentligi bilan birgalikda “Umra+” dasturi orqali yurtimizga tashrif buyuruvchi ziyoratchilarga “Halol” belgili sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatishni ta‘minlash maqsadida sertifikatlashtirish ishlarini yo‘lga qo‘yish, Buxoro sinov va sertifikatlashtirish markazi qoshida qo‘shma sertifikatlashtirish idorasi hamda sinov majmuasini tashkil etish amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirishdagi yana bir muhim yutuqlardan biri Islom Hamkorlik Tashkiloti madaniyat vazirlarining IX Islom konferensiyasida 2020-yilda Buxoro – “Islom olami madaniyati poytaxti” deb e‘lon qiligani bo‘ldi [11]. Bu olamshumul voqea respublikamizda va xorijda katta qiziqish uyg‘otdi, xalqimizga, ilm-u fan vakillari hamda ziyolilarimizga alohida g‘urur bag‘ishladi. Ushbu hodisalar ham mamlakatimizga musulmon sayyohlarning soni ortishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan ham mamlakatimizda ziyorat turizmi bilan bog‘liq infratuzilmani yanada takomillashtirish muhimdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, yurtimizda “Halol” standartlari asosida turizm xizmatlarining ko‘rsatilishi mamlakatimizning musulmon mamlakatlari bilan, ya‘ni Islom Hamkorlik Tashkiloti a‘zo davlatlar bilan hamkorlik aloqalariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Albatta, ziyorat turizmi deganda ziyoratgohlarga musulmon sayyohlarning kelishi nazarda tutiladi. Bu sayyohlarning katta qismini esa

IHTga a‘zo mamlakatlarining musulmon aholisi tashkil qilishi shubhasiz. Shunday ekan, musulmon mamlakatlari aholisi uchun biz “Halol” belgisiga ega turizm xizmatlarini taqdim qilish orqali dunyoda soni tobora ortib borayotgan musulmon sayyohlarni vatanimizga jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘lishimiz mumkin. Bu esa turizmdan tushadigan daromadlar hajmini ko‘payishiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, musulmon sayyohlarni mamlakatimizga jalb qilish ularning vatanlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlanishiga muhim turtki bo‘ladi. Chunki musulmon mamlakatlar bilan aloqani yo‘lga qo‘yish uchun avvalo musulmon xalqlari bilan o‘zaro ijtimoiy aloqalarni yaxshilash talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 5 январдаги ПФ-5611-сонли Фармонида илова.
2. Жиянов Ў.П. Ўзбекистонда зиёрат туризмнинг ривожланиш имкониятлари. “Ислом тақаккури” илмий-маърифий, диний-маданий ахборот нашри. – Т.: ЎзХИА НМБ. Махсус сон. 29.07.2020.
3. Mardonova.M.A. O‘zbekiston ziyorat turizmining dunyo tamddunida tutgan o‘rni. “Buyuk ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmining renessansi” nomli ilmiy maqolalar to‘plami. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019.
4. Ghani, Gairuzazmi M. Tourist arrivals to Malaysia from Muslim countries. Tourism Management Perspectives 20 (2016): 1-9.
5. Han, H.; Al-Ansi, A.; Olya, H.G.T.; Kim, W. Exploring halal-friendly destination attributes in South Korea: Perceptions and behaviors of Muslim travelers toward a non-Muslim destination. Tour. Manag. 2019, 71, 151–164.
6. Malaysia 2019 by Islamic Tourism Centre// http://www.sesric.org/imgs/news/2228_MR_DAUD.pdf
7. <https://www.standart.uz/ru/news/view?id=1483>
8. <https://iiv.uz/news/ozbekiston-xavfsiz-mamlakat-sifatida-nufuzini-yanada-mustahkamlamoqda-17-11-20>
9. <https://ramarama.my/the-11th-world-halal-conference-2019-presents-strategic-direction-for-the-halal-economy-2/>
10. <https://www.statista.com/topics/4428/global-halal-market/>
11. https://uzbekembassy.com.my/uzb/yangiliklar/sayyohlik/buxoro_islom_olami_madaniyati_poytaxti.html
12. <https://www.youtube.com/watch?v=rycbajxiqcc>
13. <https://www.standart.uz/cyrl/page/view?id=180>